



“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” XALQARO ILMIY ANJUMANI



NAMANGAN 2024



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA TA’LIM KAFEDRASI**

**“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK
TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY ANJUMANI TO‘PLAMI
2024-YIL 28-29 MAY**

**COLLECTION OF ARTICLES OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE DEDICATED TO THE
TOPIC: “PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MORAL
AND AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL AND PRIMARY
EDUCATION”
May 28-29, 2024**

**СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ ТЕМЕ: « ПРИОРИТЕТНЫЕ
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРАВСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ »**

28-29 мая 2024 года

NAMANGAN-2024

УДК.

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. Namangan davlat pedagogika instituti.28-29-may 2024-yil \ Bosh muharrir M.X.Asranbayeva. Namangan: 2024.-558 b

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida **“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi.

Konferensiya materiallaridan pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

O‘.Asqarova - pedagogika fanlari doktori, professor;

N.Abdusamatova – pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent;

Sh.Xujamberdiyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Tashkiliy qo‘mita:

B. Xusanov- Namangan davlat pedagogika instituti rektori;

M. Qodirxonov- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;

J.Yuldashev- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;

M.Asranbayeva- Maktabgacha ta’lim kafedrasini mudiri, dotsent;

M.Badridinova- Maktabgacha ta’lim kafedrasini dotsenti, p.f.n;

N.Ismoilova- Maktabgacha ta’lim kafedrasini v.v.b dotsenti;

N.Maxmudova- Maktabgacha ta’lim kafedrasini v.v.b dotsenti;

A.Xakimov- Maktabgacha ta’lim kafedrasini o‘qituvchisi;

Sh.Abdukarimova- Maktabgacha ta’lim kafedrasini o‘qituvchisi;

F. Akramjonova - Maktabgacha ta’lim kafedrasini o‘qituvchisi;

G.Ibrohimova -NamDPI magistranti.

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 30-may 2024-yildagi 07-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (**Bayonnoma № 07**) **Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.**

4. A.B. Rakhmonovich, A.N. Bakhtiyorovna. The main motives and tasks of children's folklore. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)

TARBIYACHILARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi

ChDPU maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi

Sultonova Sarvinoz Muzaffar qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining faoliyatlar jarayonida pedagogik mahorati va uni takomillashtirish texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, jarayon, mahorat, pedagogik texnologiya, takomillashtirish.

Yangi O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim tizimida va jarayonida qanday texnologiyalarni qo'llash samarali natijalarga erishishimiz uchun zamin yaratadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladiga muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak va samarali natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt mobaynida muayyan nazariy-ilmiiy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan kompetensiyalarni baholash pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim muhitiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonini ilg'or va innovatsion tashkil etish, uni samarali boshqarish pedagoglarning oldida turgan eng asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- har tomonlama intellektual salohiyatli bugungi zamon talablariga raqobatbardosh bo'lishlarini taminlaydi;

- ta'lim va o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi

- bolalarda kreativ fikrlash va yangi g'oyalar shakllanadi

- innovatsion tajribalar va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi

- berilayotgan topshiriqlarga noodatij yondashish usullarini o'ylab topishadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

— pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;

— o'qituvchi o'rtasida o'zaro jamoani qaror toptirishi;

— o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

— o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

— o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

— pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

A.S.Makarenko "Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg‘in va qat‘iy talab bo‘lmasa jamoani tarbiyalashni boshlab bo‘lmaydi" degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yuliga boshlash uchun xizmat qilishi;

- talabning ijobiy bo‘lishi va bolaning hatti - harakatlariga to‘sqinlik qilmasligi;

- talabning aniq va tushunarli bo‘lishi;

- qo‘yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;

- talab ochiq chehra bilan, samimiy bir ohangda berilishi, iltimos, maslahat shaklida bo‘lib, bolani yaxshi niyatga chorlashi;

- talab bolalarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo‘lishi;

- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo‘lmasligi va boshqalar.³⁵

Xulosa o‘rnida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash avvalo kelgusida ham ta’lim va tarbiya beradigan dargohidan salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Yana shuni aytish mumkinki faoliyat jarayonini o‘zgacha yangicha usulda tashkil etish orqali vaqtni tejash va qisqa vaqt oralig‘ida ko‘proq ma’lumotlarni berish berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shavkat Mirziyoyev Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent - „O‘zbekiston”-2016.

2. Xo‘jaev N., Xoshimova M., Hakimova M. va boshqalar. pedagogika. (darslik) - T.: TDIU, 2007.

3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. T.: -Moliya, 2008.

SINGAPUR MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI

Qambarova Dilfuza

“University of economics and pedagogy” NOTM

Pedagogika kafedrasi assistant-o‘qituvchisi

Fozilova Iltifot

“University of economics and pedagogy” NOTM

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Singapur maktabgacha talim tizimi va uning

³⁵ <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13254-o-qituvchi-mahoratini-takomillashtirish-yo-li-va-shart-sharoitlari>

	3.Дехканов Аброп Эркинбой угли 4.Муродиллаев Рахматилло Носиржон угли		
136.	1.Mustafoev Abduvohid Abduhafiz o'g'li 2.Uralov Abubakr Azamat o'g'li	GLOBALLASHAYOTGAN JAMIYATDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR.	432
137.	Nosirova Ra'no Xamidovna	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	435
138.	Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL O'QISHGA PIRLS BAHOLASH TIZIMINI QO'LLASH VOSITASIDA O'RGATISH	439
139.	1.O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi 2.Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi	TARBIYACHILARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI	442
140.	1.Qambarova Dilfuza 2.Fozilova Iltifot	SINGAPUR MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI	443
141.	Roximova Nilufar Egamberganovna	FACTORS OF ENSURING AND IMPROVING ORGANICITY AND CONTINUITY OF TECHNOLOGICAL SCIENCE	446
142.	1.N.Sh. Mullaboyeva 2.Mahsudaliyev Sherzod	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA LIDERLIK SIFATLARI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	449
143.	1.Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich 2.Mirzabekova Go'zal To'ychiboyevna 3.Murodova Ruxshona Muzaffar	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISH VA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIKASI	455